

PEDAGOGIK MAHORAT

6
2025



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2025-yil, iyun)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2025

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025, № 6

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Zotova Firuza Raxmatullova, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abdullayev Mehridin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

		asosida)	
	RUSTAMOVA Manzura Ne'matjanovna	Keksalik davridagi shaxslarning ta'limi psixologik va ijtimoiy aspektlarda	105
	TOSHPO'LATOV Anvar Shokir og'li	Oilaviy munosabatlardagi bag'rikenglikning profilaktika inspektorlari faoliyatiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	109
	TUROPOVA Ma'mura Safar qizi	Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarligini shakllantirish yo'llari	113
	TUXLIYEV Muslimbek Sherzod og'li	Mehnat ta'limi o'qituvchisi faoliyatini nazorat qilish – pedagogik muammo sifatida	117
	USMONOVA Oydin Sherali qizi	Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish-dolzarb pedagogik muammo sifatida	122
	VOXOBOV Nuriddin G'ofurjon o'g'li	Integrativ yondashuv asosida bo'lajak ofitserlarning profayling kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi	126
	NURILLAYEV Samad Safarovich, XAKIMOVA Ma'mura Muxammadiyevna	Gemifikatsiya asosida informatika darslarini tashkil etishda o'qituvchini tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari	131
	XAYRULLAYEV Qodir Zarfulla o'g'li	Talabalarda frustratsiya holatini yuzaga keltiruvchi nizoli vaziyatlarga nisbatan tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	137
	XURSANOV Omadbek Ulug'bek o'g'li	Yosh oilalarning psixologik moslashuvi: muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	141
	XUSHVAQTOV Umar Norqobilovich	Imperativ algoritmik tafakkurni rivojlantirishga metodik yondashuvlarning tahlili	146
	YULDASHEVA Maloxat Erkinovna	Zamonaviy pedagogik jarayonda pedagogning kasbiy kompetentligi tushunchasi	152
	АЛИЖОНОВ Азизжон Турсуналиевич	Ички ишлар органлари ходимларини касбий тайёрлашда ўқотар қуроллардан фойдаланиш педагогик муаммо сифатида	156
	ХАЙИТОВА Шакҳноза Данияровна, АЛЛАЗОВ Искандар Салаҳ ўғли	Кредит-модул муҳитида талабалар мустақил ишларининг ташкилий тузилмаси	162
	НАЖМИДДИНОВА Ёқутхон Рухиддиновна	“Dakum” методи асосида бўлажак мутахассисларни метапредмет компетенцияларни ривожлантириш	167
	ТАНИБЕРДИЕВ Акмал Абдуганиевич	Кўзи ожиз ўқувчилар учун модулли дастурларни ишлаб чиқишнинг методикаси	171
	ШАМСИДДИНОВА Мехрибон Фахриддиновна	Инновационные технологии, как средство совершенствования коммуникативной компетенции	175
	BOBOYEVA Umida Baxshulloyevna	Uzoq muddat davolanayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining tassavvur doirasini kengaytirish orqali nutq boyligini o'stirish	180
	FAYZULLAEVA Xolida Axmadjon qizi	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida fanlarni integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish	185
	HAMROYEV Sobirjon Husenovich	Fan to'garaklarini talabalarning tadqiqotchilik rivojiga ta'siri	189
	KADIROV Rashid Xamidovich	Bokschi va voleybolchi talabalarning tanqidiy fikrlash darajasi va akademik o'zlashtirishining qiyosiy tahlili	193

BOKSCHI VA VOLEYBOLCHI TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASH DARAJASI VA AKADEMIK O‘ZLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI

Kadirov Rashid Xamidovich,
Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston,
r.x.kadirov@buxdu.uz

Ushbu tadqiqotda yakkakurash (boks) va sport o‘yinlari (voleybol)ga ixtisoslashgan jismoniy tarbiya fakulteti talabalarining tanqidiy fikrlash darajasi va akademik o‘zlashtirishi darajalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik o‘rganilgan. Sportchilarning akademik yutuqlarini belgilovchi omillar aniqlandi: bokschi talabalar uchun tahliliy qobiliyatlar va o‘z kuchiga ishonch; voleybolchi talabalar uchun esa tahliliy ko‘nikmalar, innovatsiyalarga ochiqlik va vaziyatni kompleks tahlil qilish qobiliyati muhimligi ko‘rsatildi. Olingan ma’lumotlar asosida har bir sport turining xususiyatlarini hisobga olgan holda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot talaba-sportchilarning o‘quv jarayoni dasturlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, akademik o‘zlashtirish, sport faoliyati, pedagogik faoliyat, boks, voleybol, talabalar, sport psixologiyasi, mashg‘ulot jarayonlari, individual dasturlar.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И АКАДЕМИЧЕСКОЙ УСПЕВАЕМОСТИ СТУДЕНТОВ-БОКСЕРОВ И ВОЛЕЙБОЛИСТОВ

В данном исследовании изучена корреляционная связь между уровнем критического мышления и академической успеваемостью студентов факультета физической культуры, специализирующихся на единоборствах (бокс) и спортивных играх (волейбол). Определены факторы, влияющие на академические достижения спортсменов: для студентов-боксеров – аналитические способности и уверенность в своих силах; для студентов-волейболистов – аналитические навыки, открытость инновациям и способность к комплексному анализу ситуации. На основе полученных данных разработаны практические рекомендации по развитию критического мышления с учетом специфики каждого вида спорта. Исследование служит оптимизации учебного процесса студентов-спортсменов.

Ключевые слова: критическое мышление, академическая успеваемость, спортивная деятельность, педагогическая деятельность, бокс, волейбол, студенты, спортивная психология, тренировочные процессы, индивидуальные программы.

COMPARATIVE ANALYSIS OF CRITICAL THINKING LEVEL AND ACADEMIC PERFORMANCE OF BOXER AND VOLLEYBALL PLAYER STUDENTS

This study investigated the correlation between critical thinking levels and academic performance among physical education students specializing in combat sports (boxing) and team sports (volleyball). Factors determining athletes' academic achievements were identified: for boxing students, analytical abilities and self-confidence were key; for volleyball students, in addition to analytical skills, openness to innovation and the ability to comprehensively analyze situations proved crucial. Based on the findings, practical recommendations for developing critical thinking, considering the specifics of each sport, were developed. The research serves to optimize the educational process for student-athletes.

Keywords: critical thinking, academic performance, sports activity, pedagogical activity, boxing, volleyball, students, sports psychology, training processes, individual programs.

Kirish. Hozirgi zamon sportining yuqori raqobatli sharoitida mutaxassislardan nafaqat jismoniy ko‘nikmalar, balki pedagogik faoliyatda tahlil qilish, baholash va asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyati ham talab etiladi. Tanqidiy fikrlash (keyingi o‘rinlarda TF) – axborotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash, dalillarni baholash va qaror qabul qilishni o‘z ichiga olgan murakkab kognitiv jarayon bo‘lib, ta’limda talabalarni tahlil usullari, mantiqiy xatolarni aniqlash va argumentatsiyaga o‘rgatish orqali rivojlantiriladi. Sportda muvaffaqiyat tobora ko‘proq sportchilar va murabbiylarning intellektual qobiliyatlariga bog‘liq bo‘lib, TF ularga raqiblar taktikasini tahlil qilish, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish va stressli vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqot yakkakurash va sport o'yinlari turlariga ixtisoslashgan talabalarning tanqidiy fikrlash darajasi va akademik o'zlashtirishi (keying o'rinlarda AO') o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga qaratilgan. Sport ixtisosligiga qarab TFning rivojlanish darajasi farqlanishi mumkinligi taxmin qilinadi. TFning rivojlanishi bo'lajak mutaxassislariga mashg'ulot jarayonlarini samarali tahlil qilish, individual dasturlarni ishlab chiqish va sportdagi yangi tendensiyalarga moslashish imkonini beradi.

Afsuski, sportda jismoniy tayyorgarlikka katta e'tibor qaratilsa-da, TF kabi kognitiv jihatlar ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Ushbu tadqiqot mazkur bo'shliqni to'ldirish hamda yuqori sport natijalariga erishishda TFning rolini baholashga qaratilgan. Cheksiz axborot oqimi sharoitida TF zaruriy ko'nikmaga aylanmoqda, ammo zamonaviy ta'lim ko'pincha eslab qolishga urg'u berib, tahliliy fikrlashni rivojlantirishni e'tiborsiz qoldiradi. Shu bois, talabalarda TFni shakllantiruvchi yangi ta'lim yondashuvlarini yaratish muhimdir.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar, xususan, jismoniy madaniyat va sport kontekstida barqaror qiziqish uyg'otmoqda. Yaqin hamdo'stlik davlatlari olimlarining ishlari ham bu borada ilmiy asoslangan metodikalarni yaratishga intilish mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot ham ana shu yo'nalishdagi izlanishlarning bir qismi sifatida talaba-sportchilar tayyorgarligini takomillashtirishga hissa qo'shishni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida tanqidiy fikrlash kompetensiyasining shakllanishi va rivojlanishiga bag'ishlangan mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tanqidiy fikrlash o'quvchi va talabalarning tafakkur darajasini oshirish, o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil qaror qabul qilish va yangicha yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim kompetensiyalardan biridir.

Birinchi navbatda, tanqidiy fikrlash texnologiyalarining nazariy asoslarini aniqlashga qaratilgan fundamental ishlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Berdnikova I.A. (2007) tomonidan taqdim etilgan tadqiqotda tanqidiy fikrlash texnologiyalarining konseptual asoslari yoritilgan bo'lib, muallif ushbu ko'nikmaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini bosqichma-bosqich ko'rib chiqqan [1]. Ushbu tadqiqot nazariy asos yaratishda foydali bo'lsa-da, amaliy jihatdan cheklanganligi kuzatiladi.

Tanqidiy fikrlashning jismoniy tarbiya tizimidagi ahamiyatini ko'rsatishda Vitun E.V. va Vitun V.G. (2014) tomonidan olib borilgan izlanishlar diqqatga sazovordir. Mualliflar tanqidiy fikrlashni sportchi shaxsini shakllantirishda vosita sifatida talqin qilgan va uni o'quv mashg'ulot jarayonida amaliy qo'llash usullarini taklif etganlar [2]. Ushbu tadqiqotda metodik jihatlar yoritilgan bo'lsa-da, empirik asoslar nisbatan kam ko'rsatilgan.

Volkova L.M. va hamkorlari (2022) tomonidan tanqidiy fikrlashni o'quv-trening jarayoniga integratsiya qilish zarurligi asoslangan bo'lib, ayniqsa sportchilar tafakkurining dinamik rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar ilgari suriladi [3]. Biroq, konseptual aniqlik va metodik birlik saqlangan bo'lsa-da, natijalarni taqqoslash va umumlashtirish komponentlari yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

Kulichenko I.V. va boshq. [4] tomonidan olib borilgan tadqiqotda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan. Tadqiqotning ijobiy jihati — ta'lim dasturlarini tahlil qilish asosida aniq tavsiyalar berilganidir.

Mahalliy tadqiqotchilardan Nematova I.G. (2015) tomonidan taqdim etilgan izlanishda ijodiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining o'zaro bog'liqligi va ularni rivojlantirishdagi innovatsion metodlarga urg'u berilgan [5]. Bu yondashuv O'zbekiston ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlar asosida fikrlovchi kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

Osadchaya L.A. (2019) tomonidan tanqidiy fikrlashni jismoniy madaniyat bakalavrlarini tayyorlash jarayonida universal kompetensiya sifatida shakllantirish masalasi o'rganilgan [6]. Tadqiqotda refleksiv yondashuvlarni rivojlantirish zarurligi asoslangan.

Mahalliy mualliflardan yana biri Shakirova D.M. (2013) o'z tadqiqotida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga oid nazariy model va texnologiyalarni ishlab chiqqan bo'lib, bu ilmiy asoslangan, amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni tashkil qiladi [7]. Muallif konkret texnologik yechimlarni taklif qilgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi to'g'risida batafsil empirik ma'lumotlar mavjud emas.

Xorijiy manbalar orasida Koffman D.M. (2013) bo'lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash haqidagi qarashlarini o'rganib, yuqori darajadagi tafakkur kompetensiyalarini qanday qabul qilinishi va rivojlanishini ko'rsatgan [8]. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning tanqidiy tafakkurga bo'lgan tayyorgarligi va motivatsiyasini aniqlashda foydalidir.

Derrik-Telemaque E. (2014) tanqidiy fikrlash va akademik muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlikni statistik modellashirish asosida tahlil qilgan bo'lib, bu tadqiqot tanqidiy fikrlashni natijaviy o'zlashtirish

darajasi bilan bevosita bog‘laydi [9], [13]. Bu ikki tadqiqot tanqidiy fikrlashni baholash mezonlarini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

Doganay A. (2007) yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarining o‘qitish metodikasiga urg‘u bergan bo‘lib, u tanqidiy fikrlashni o‘qituvchilarning o‘quv strategiyasiga moslashtirish zarurligini asoslaydi [10].

Güven H. (2007) tanqidiy fikrlashga ta’sir etuvchi omillarni empirik jihatdan tahlil qilgan bo‘lib, bu tadqiqot psixologik va sotsiokognitiv yondashuvlarning uyg‘unligini namoyon qiladi [11].

Kalelioğlu F. (2011) onlayn-muhokama platformalari orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining namoyon bo‘lish jarayonini o‘rgangan. Tadqiqotda real va sun‘iy fikrlash faoliyatini o‘zaro solishtirish metodikasi qo‘llanilgan bo‘lib, bu zamonaviy raqamli ta’lim muhitida muhim ahamiyat kasb etadi [12].

Tahlil qilingan adabiyot tanqidiy fikrlashning nazariy asoslari, o‘quv jarayonidagi ahamiyati, sport pedagogikasidagi o‘rni va baholash uslublari borasida boy ilmiy materiallar beradi. Biroq ularning ba’zilarida empirik dalillar yetarli emas yoki ta’lim tizimiga qo‘llash mexanizmlari chuqur ochib berilmagan. Shunga ko‘ra, mavjud o‘rganilmalarni umumlashtirish, tanqidiy fikrlashni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish bo‘yicha yagona metodik model ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqot yuqorida tilga olingan muammoni hal etishga qaratilgan bo‘lib, jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shishga intiladi. Tadqiqotning asosiy mohiyati turli sport turlari, jumladan, yakkakurashlar va sport o‘yinlari bo‘yicha ixtisoslashgan talabalarning tanqidiy fikrlash (TF) darajasi hamda ularning akademik o‘zlashtirishi (AO) o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli korrelyatsion bog‘liqlik darajasini o‘rganish orqali joriy ta’lim dasturlarni mazmunan optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqotda Buxoro davlat universiteti Jismoniy tarbiya va sport fakultetining jami 85 nafar talabasi ishtirok etdi. Ishtirokchilar boks (n=44) va voleybol (n=41) sport turlari bo‘yicha ixtisoslashgan talabalardan iborat edi. Turli sport turlari vakillarining kiritilishi tanqidiy fikrlashning turli faoliyat kontekstlarida qanday namoyon bo‘lishini tahlil qilish imkoniyatini yaratdi. Natijalarning statistik ishonchliligini ta’minlash uchun har bir guruhdan reprezentativ tanlanma tuzildi.

Bokschi talabalarning tanqidiy fikrlashini baholash uchun California Critical Thinking Disposition Inventory (CCTDI) shkalasiga asoslangan moslashtirilgan savollar ro‘yxati ishlatiladi. CCTDI - bu shaxsning tanqidiy fikrlashga moyilligini o‘lchaydigan keng tarqalgan vosita. Ushbu moslashtirilgan vosita turli maqsadlarda tanqidiy fikrlashning asosiy jihatlarini, ya’ni quyidagilarni baholash imkonini beradi:

1. Analitiklik. Muammolarni tahlil qilish, qismlarga ajratish va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish qobiliyati.

2. Ochiqlik. Yangi g‘oyalarga, qarashlarga ochiq bo‘lish va boshqa nuqtayi nazarlarni ko‘rib chiqishga tayyorlik.

3. Qiziquvchanlik. Bilimlarni o‘rganishga, savollar berishga va tushunishga intilish.

4. O‘ziga ishonch. O‘zining fikrlash qobiliyatiga ishonish.

5. Haqiqatni izlash. Dalillarga asoslanib, ob’ektiv xulosalar chiqarishga intilish.

6. Tizimlilik. Ma’lumotlarni tartibga solish, bog‘liqliklarni aniqlash va murakkab g‘oyalarni tushunish qobiliyati.

Mazkur mezonlar asosida olingan natijalar sport faoliyati yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida turli ixtisoslikdagi sportchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini o‘rganishda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Baholash jarayoni Likert shkalasiga asoslangan bo‘lib, unda ishtirokchilarning fikrlari 1 (mutlaqo qo‘shilmayman) dan 5 (mutlaqo qo‘shilaman) gacha bo‘lgan oraliqda baholandi. Bu esa miqdoriy tahlil uchun zarur bo‘lgan empirik ma’lumotlarni olish imkonini yaratdi.

Talabalarning akademik o‘zlashtirishi (AO) ularning ixtisoslik fanlari bo‘yicha o‘rtacha joriy baholari asosida baholandi. Joriy o‘zlashtirishga oid ma’lumotlar Buxoro davlat universiteti HEMIS axborot tizimidan olinib, tadqiqot uchun rasmiy va ishonchli manba vazifasini bajardi.

Olingan natijalarni tahlil qilish va qayta ishlashda statistik usullardan foydalanildi. Jumladan, tanqidiy fikrlashning alohida komponentlari bilan akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasini aniqlash maqsadida Pirson korrelyatsiya tahlili qo‘llanildi. Ushbu usul ikki miqdoriy o‘zgaruvchi o‘rtasidagi chiziqli munosabatning kuchi va yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — tanqidiy fikrlash darajasi bilan akademik o‘zlashtirish o‘rtasidagi statistik ahamiyatga ega bog‘liqliklarni aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Tadqiqot doirasida tanqidiy fikrlash quyidagi asosiy jihatlar bo‘yicha baholanishi rejalashtirilgan:

1. Raqib harakatlarini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va murakkab vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilish qobiliyati. Ushbu komponentni baholashda mantiqiy fikrlash, muammolarni yechish va axborotni tahlil qilishga yo‘naltirilgan testlardan foydalaniladi. Xususan, boks, kurash yoki sport o‘yinlaridagi muvaffaqiyat

ko‘p jihatdan raqibning keyingi harakatlarini oldindan prognoz qilish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, bu analitik fikrlashni talab qiladi. Sport musobaqasi davomida vaziyatni tezda baholab, raqibning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, muvofiq strategiya tanlashi va o‘z harakatlarini shu asosda moslashtirishi zarur. Bunday kognitiv faollik tanqidiy fikrlashning tahliliy aspekti bilan bevosita bog‘liqdir.

2. O‘z kuchiga bo‘lgan ishonch, musobaqa oldidan stressni yengish va qaror qabul qilishdagi qat’iyat. Ushbu jihat shaxsning o‘zini baholashi, ichki ishonchi va qaror qabul qilishdagi barqarorligini aniqlashga qaratilgan psixologik so‘rovnomalar yordamida o‘lchanadi. Boks va kurash kabi individual sport turlarida sportchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki natijaga to‘liq o‘zi mas’ul bo‘ladi. Jamoaviy sport turlarida esa bu omil jamoaviy ishonch va hamkorlik darajasi bilan uzviy bog‘liq. Har qanday holatda ham, ichki ishonch stressli sharoitda to‘g‘ri va tezkor qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

3. Fikrning ochiqqligi, haqiqatni izlashga intilish va tizimli yondashuv ko‘nikmalari. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi tarkibiy qismlar asosida baholanadi:

Tanqidni qabul qilishga ochiqlik va yangi yondashuvlarga tayyorlik. Sportchi o‘z ustida ishlashga bo‘lgan intilishini, murabbiy va jamoa a‘zolarining tanqidiy fikrlarini qabul qilishga tayyorligini hamda yangi mashqlar yoki strategiyalarni amaliyotga joriy etish irodasini bildiradi.

Halollik va obyektiv tahlilga asoslangan yondashuv. Sportchi o‘z natijalarini xolis baholay olishi, muvaffaqiyatsizlik sabablarini ilmiy asosda tahlil qilishi va mashg‘ulot jarayonini obyektiv mezonlar asosida tashkil etishga intilishi kerak.

Tayyorgarlikni tizimli rejalashtirish va harakatlarni kompleks tahlil qilish. Bu mashg‘ulotning turli komponentlarini — jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik elementlarini yagona tizimda birlashtira olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, sportchi musobaqa yoki mashg‘ulot jarayonidagi faoliyatini chuqur tahlil qilgan holda kelgusidagi faoliyati uchun asosli xulosalar chiqara olishi kerak.

Ushbu ko‘nikmalarni aniqlash va baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan psixologik so‘rovnomalar hamda tegishli metodik vositalardan foydalaniladi. Ta’kidlash joizki, tanqidiy fikrlashga oid sifatarning rivojlanish darajasi sport turining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab farqlanishi mumkin. Masalan, individual sport turlarida sportchining o‘z harakatlarini mustaqil tahlil qilish, o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga o‘zgartirishlar kiritish va o‘zini boshqarish qobiliyatlari muhim rol o‘ynaydi. Aksincha, jamoaviy sport turlarida esa boshqa ishtirokchilarning fikri, qarorlari va harakatlariga moslashish, samarali muloqot va hamkorlik qilish kabi jihatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda, yanada to‘liqroq tasvirga ega bo‘lish uchun talabalarning akademik o‘zlashtirishi (AO‘) ham ularning joriy baholari bo‘yicha o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarning o‘rtacha bali sifatida baholanadi. Tanqidiy fikrlash testlari natijalari bilan akademik o‘zlashtirish haqidagi ma’lumotlarni solishtirish mumkin bo‘lgan korrelyatsiyalar va qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi. Ya’ni, agar tanqidiy fikrlashi yuqori bo‘lgan talabalar akademik jihatdan ham yaxshiroq natijalarga erishayotgan bo‘lsa, bu o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Kompleks yondashuv turli ixtisoslikdagi sportchilarda tanqidiy fikrlashning rivojlanishi haqida har tomonlama tasavvurga ega bo‘lish va bu sifatning o‘ziga ishonch va akademik o‘zlashtirish kabi boshqa muhim omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga yordam beradi. Bu bog‘liqliklarni tushunish ta’lim va mashg‘ulot jarayonlarini yanada samarali tashkil etish uchun muhimdir.

Barcha tasdiqlar 1 dan 5 gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha baholanadi, bunda 1 – "mutlaqo qo‘shilmayman", 5 – "mutlaqo qo‘shilaman" degan ma’noni anglatadi. Ushbu yondashuv miqdoriy ma’lumotlar olish imkonini beradi, bu ma’lumotlar keyinchalik kurashchilarda (va boshqa sportchilarda) tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash va uning boshqa omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash uchun tahlil qilinadi. 1 dan 5 gacha bo‘lgan shkala (Likert shkalasi) ixtisoslashtirilgan so‘rovnomalarda shaxsning biror fikrga yoki bayonotga nisbatan munosabatini aniq va o‘lchash imkonini beradigan standart usuldir.

Olingan ma’lumotlarni qayta ishlash uchun statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tanqidiy fikrlash (TF) darajasi va akademik o‘zlashtirish (AO‘) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash maqsadida Pirson korrelyatsion tahlili qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari bokschi talabalarda tanqidiy fikrlash jihatlarini va akademik o‘zlashtirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikda qiziqarli tendensiyalarni namoyish etdi (1-jadvalga qarang). Bu dastlabki natijalar tanqidiy fikrlashning sportchilarning nafaqat sportdagi, balki ta’limdagi faoliyatida ham muhim rol o‘ynashi mumkinligi haqidagi farazlarga oydinlik kiritib, keyingi muhokama uchun asos yaratadi.

1-jadval.

**Bokschi talabalarning tanqidiy fikrlash jihatlarini va akademik o‘zlashtirishi korrelyatsiyasi
(n=44)**

№	O‘zgaruvchilar	r	t	p
---	----------------	---	---	---

1	Analitik qobiliyat – akademik o‘zlashtirish	0.45	2.0	< 0.05
2	O‘ziga ishonch darajasi – akademik o‘zlashtirish	0.60	2.8	< 0.01
3	Fikrning ochiqqligi, haqiqatni izlash va tizimlilik – akademik o‘zlashtirish	0.40	2.1	< 0.05

Natijalar va ularning muhokamasi (Bokschi talabalar). Talaba bokschilarda o‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, ularning mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyati (analitik qobiliyatlar) hamda akademik o‘zlashtirish o‘rtasida sezilarli ijobiy bog‘liqlik aniqlandi ($r=0.45$, $p < 0.05$). Bu shuni ko‘rsatadiki, analitik qobiliyati yaxshi rivojlangan bokschilarning baholari yuqoriroq bo‘ladi, bu boksda tezkor tahlil qilish zaruriyati o‘quv o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir etishini taxmin qilish imkonini beradi.

Yanada kuchliroq bog‘liqlik o‘ziga ishonch darajasi va akademik o‘zlashtirish o‘rtasida kuzatildi ($r=0.60$, $p < 0.01$). Bu topilma o‘z kuchiga ishongan va qaror qabul qilishdan qo‘rqmaydigan bokschilarning, qoida tariqasida, yaxshiroq o‘qishini ko‘rsatadi. Boks kabi individual sport turida o‘ziga ishonchning fundamental ahamiyati uning akademik muvaffaqiyatda ham namoyon bo‘lishiga ishora qiladi.

Shuningdek, fikrning ochiqqligi, haqiqatga intilish va tizimlilik kabi tanqidiy fikrlash jihatlari ham akademik o‘zlashtirish bilan o‘rtacha, ammo statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikni ko‘rsatdi ($r=0.40$, $p < 0.05$). Bu topilma kengroq intellektual sifatlarning umumiy ta’lim muvaffaqiyati uchun muhimligini ta’kidlaydi.

Umumiy xulosa shuki, bokschi talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, xususan, ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyati, o‘ziga ishonch va yangi bilimlarga ochiqlik ularning akademik muvaffaqiyatida muhim rol o‘ynaydi. Bu natijalar ushbu sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborotni tahlil qilish, qonuniyatlarni ko‘ra bilish va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyati voleybol guruhi talabalarining akademik o‘zlashtirishida asosiy rol o‘ynaydi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Voleybolchi talabalarining tanqidiy fikrlash jihatlari va akademik o‘zlashtirishi korrelyatsiyasi (n=41)

№	O‘zgaruvchilar	r	t	p
1	Analitik qobiliyat – akademik o‘zlashtirish	0.70	2.8	<0.01
2	O‘ziga ishonch darajasi – akademik o‘zlashtirish	0.40	1.5	>0.05
3	Fikrning ochiqqligi, haqiqatni izlash va tizimlilik – akademik o‘zlashtirish	0.50	2.2	<0.05

Natijalar va ularning muhokamasi (Voleybolchi talabalar). Voleybolchi talabalar guruhida o‘tkazilgan tahlil tanqidiy fikrlash jihatlari va akademik o‘zlashtirish o‘rtasida bokschilardan biroz farqli tendensiyalarni ko‘rsatdi.

Voleybolchilarda analitik qobiliyat va akademik o‘zlashtirish o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik aniqlandi ($r=0.70$, $p < 0.01$), bu bokschilarnikidan sezilarli darajada kuchliroqdir. Bu shuni anglatadiki, voleybolning tezkor tahlil va strategik fikrlashni talab qiluvchi tabiati analitik qobiliyatlarni chiniqtirib, talabalarining o‘quv o‘zlashtirishiga yanada kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Bokschilardan farqli o‘laroq, voleybolchilarda o‘ziga ishonch darajasi va akademik o‘zlashtirish o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik aniqlanmadi ($r=0.40$, $p > 0.05$). Bu jamoaviy sportning o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bunda shaxsiy ishonchdan ko‘ra jamoaviy hamjihatlik va jamoaga ishonch umumiy muvaffaqiyatga ko‘proq ta’sir qiladi.

Fikrning ochiqqligi, haqiqatni izlash va tizimlilik kabi jihatlar ham voleybolchilarda akademik o‘zlashtirish bilan ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikni ko‘rsatdi ($r=0.50$, $p < 0.05$), bu bokschilarnikiga qaraganda biroz kuchliroqdir. Bu sifatlarni voleybolchilar uchun yangi g‘oyalarga ochiqlik, xolisonalik va tizimli yondashuvning o‘qishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Umumiy qilib aytganda, voleybolchilar uchun analitik qobiliyatlar akademik o‘zlashtirishni belgilovchi asosiy omil bo‘lib chiqdi, bu sport turining aqliy talablarini aks ettiradi. O‘ziga ishonch bokschilardagi kabi kuchli bog‘liqlikka ega emasligi jamoaviy sport xususiyatlari bilan izohlanadi. Fikrning ochiqqligi va tizimlilik ham muhim bo‘lib, bu sifatlarni voleybolchilarda nafaqat sportda, balki ta’limda ham muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Xulosa. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sportchilar, xususan, bokschilar va voleybolchilarning o‘qishdagi muvaffaqiyatining o‘ziga xos sirlari bor. Masalan, bokschilar, agar axborotni tahlil qilishni bilsalar va

o'zlariga ishonsalar, ta'limda o'zlashtirish darajasi ijobiy tomonga o'zgarishi mumkin. Bu mantiqan to'g'ri, chunki ringda tezkor fikrlash va qaror qabul qilish kerak. Ayni paytda, voleybolchilarga analitik qobiliyatlar bilan bir qatorda yangilikka ochiqlik va umumiy manzarani ko'ra bilish muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ehtimol, jamoaviy ruh va sheriklarni tushunish zaruriyati o'z ishini qiladi. Qizig'i shundaki, o'ziga ishonch har doim ham hal qiluvchi rol o'ynamasligi ma'lum bo'ldi, ayniqsa voleybolchilar uchun. Bu xulosa sport turining xususiyatlari tanqidiy fikrlashning qaysi jihatlari akademik faoliyatda ko'proq ahamiyat kasb etishiga ta'sir qilishini ko'rsatadi. Individual sport turlarida shaxsiy sifatlar, jamoaviy sport turlarida esa jamoaviy o'zaro ta'sirga bog'liq ko'nikmalar ko'proq ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Amaliy tavsiyalar. Olingan natijalarga asoslanib, bir nechta oddiy, ammo samarali tavsiyalar berish mumkin:

Birinchidan, axborotni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish kerak. Bu barcha sportchilarga, sport turidan qat'i nazar, foydali bo'ladi. Buning uchun mantiqiy masalalarni yechish, munozara va debat larda ishtirok etish mumkin. Bu mashqlar miyani "chiniqtiradi" va ma'lumotni tez hamda samarali qayta ishlashga o'rgatadi.

Ikkinchidan, bokschi uchun, ayniqsa, o'ziga ishonch ustida ishlash muhim. Psixologik treninglar va ommaviy chiqishlar bunga yordam berishi mumkin. O'ziga ishonchni mustahkamlash ularning nafaqat sportdagi, balki ta'limdagi qiyinchiliklarni yengib o'tish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, voleybolchilar jamoada ishlash va umumiy manzarani ko'ra bilish qobiliyatini rivojlantirishlari larayonida turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishni talab qiladigan loyihalar juda foydali bo'ladi. Jamoaviy o'yin strategiyalarini muvaffaq qilish, bir-birining harakatlarini tahlil qilish kabi mashqlar bu ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Va, albatta, har bir sportchi noyob ekanligini va o'qitishga yondashuv individual bo'lishi kerakligini unutmaslik muhim. Ba'zi sportchilarning tanqidiy fikrlashning ba'zi jihatlari tabiiy ravishda kuchliroq rivojlangan bo'lishi mumkin, boshqalari esa ko'proq e'tibor va mashq talab etiladi.

Kelajakdagi tadqiqotlar va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot – bu faqat birinchi qadam. Biz bu mavzuni o'rganishni davom ettirishni rejalashtirmoqdamiz, bu sportchilarning o'zlashtirishiga turli omillar qanday ta'sir qilishini yaxshiroq tushunish uchun zarur. Olingan natijalar jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bo'lajak mutaxassislarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Ya'ni, bu tadqiqot asosida yaratiladigan o'quv rejalari va metodikalar sportchilarni nafaqat jismoniy, balki aqliy jihatdan ham yanada kuchliroq tayyorlashga xizmat qiladi. Sport ta'limi sohasida ishlaydigan o'qituvchilar, murabbiylar va metodistlarga mo'ljallangan bo'lib, o'quv-mashg'ulot, sport tayorgarlik jarayonlariga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan elementlarni kiritishlari va talabalarning umumiy rivojlanish samaradorligi oshadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari, jumladan, sportchilarda (bokschi va voleybolchilarda) tanqidiy fikrlashning turli jihatlari (analitik qobiliyat, o'ziga ishonch, fikrning ochiqligi va h.k.) va akademik o'zlashtirish o'rtasidagi statistik ahamiyatga ega bog'liqliklar aniqlangani, mazkur yo'nalishda ta'lim dasturlariga o'zgartirishlar kiritish zarurligini ko'rsatmoqda. Quyida shu boradagi tavsiya va takliflar keltirilgan.

Tanqidiy fikrlash komponentlarini o'quv rejalari integratsiya qilish:

1. Barcha mutaxassislik fanlariga tanqidiy fikrlash elementlarini kiritish. Bunda talabalardan mavzuni oddiy yodlash emas, balki uni tahlil qilish, turli manbalardagi ma'lumotlarni solishtirish, muammoli vaziyatlarga yechim topish talab etiladi.

2. "Tanqidiy fikrlash asoslari", "Sportda analitika va qaror qabul qilish" kabi maxsus kurslar yoki modullarni o'quv rejasiga kiritish. Bu kurslarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashqlar, keystadilar (muammoli vaziyatlarni tahlil qilish), munozaralar va debatlar orqali talabalarning analitik, baholash va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Sport turi xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash:

1. Bokschi uchun o'ziga ishonchni oshirishga qaratilgan psixologik treninglar, stressni boshqarish usullarini o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlarni o'quv dasturiga kiritish yoki bu kabi mashg'ulotlarni sport tayorgarligi jarayoni bilan uyg'unlashtirish.

2. Voleybolchilar uchun jamoaviy fikrlash, umumiy manzarani ko'ra bilish, kommunikatsiya va o'zaro hamjihatlikka qaratilgan topshiriqlar va loyihalarni ko'paytirish. Bunda guruh ichida turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish, umumiy qarorga kelish kabi ko'nikmalar rivojlantiriladi.

Faol o'qitish metodlarini keng qo'llash:

1. Ma'ruza shaklidan voz kechib, interaktiv (o'zaro aloqaga asoslangan) metodlar: muammoli vaziyatlar tahlili, loyiha asosidagi ta'lim (problem/project-based learning), rolli o'yinlar, simulyatsiyalar,

aqliy hujum (brainstorming) kabilarni faol joriy etish. Bu metodlar talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi va ularda mustaqil fikrlash, muammo yechish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

2. Tanqidiy fikrlashga undovchi savollar berish va munozaralarni rag‘batlantirish. O‘qituvchilar materialni shunday taqdim etishi kerakki, talabalar savol berishga, shubha qilishga, turli fikrlarni solishtirishga undalsin.

Nazariy bilimlarni sport amaliyoti bilan bog‘lash:

1. O‘quv materiallarini sportdagi aniq misollar va vaziyatlar asosida taqdim etish. Masalan, taktik sxemalarni o‘rganishda raqibning o‘yin uslubini tahlil qilish, sportchining xatolarini aniqlash va ularni tuzatish yo‘llarini muhokama qilish.

2. Talabalardan sportdagi aniq muammolarga tanqidiy fikrlash orqali yechim topishni talab qiladigan topshiriqlar berish.

Baholash tizimini takomillashtirish:

1. Faqatgina bilimlarni yodlashga asoslangan baholashdan voz kechib, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini baholashga imkon beruvchi topshiriqlarni (analitik esselar, muammoli testlar, taqdimotlar) kiritish.

2. Talabalarning o‘zini-o‘zi baholash va tengdoshlarini baholash (peer assessment) ko‘nikmalarini rivojlantirish.

6. Professor-o‘qituvchilar va murabbiylarning malakasini oshirish: Professor-o‘qituvchilar va murabbiylar uchun tanqidiy fikrlashni o‘rgatish metodikalari bo‘yicha maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish. Ularning o‘zida ham tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va bu ko‘nikmalarni talabalarga singdirish usullarini o‘rgatish muhim.

Ushbu tavsiya va takliflarning amalga oshirilishi, talaba-sportchilarni nafaqat yuqori malakali sportchilar sifatida, balki zamonaviy jamiyat va sport sohasi talablariga javob bera oladigan, mustaqil fikrlaydigan, analitik va tanqidiy yondashuvga ega mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa pirovard natijada ularning ham sportdagi, ham hayotdagi, ham akademik faoliyatidagi muvaffaqiyatlarining oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Бердникова, И. А. Концептуальные основы технологии развития критического мышления //Фундаментальные исследования. – 2007. – №. 12-2. – С. 354.

2. Витун, Е. В., Витун, В. Г. Использование технологии развития критического мышления в процессе физического воспитания //Вестник Оренбургского государственного университета. – 2014. – №. 3 (164). – С. 73-77.

3. Волкова, Л. М. и др. Развитие критического мышления студентов в учебно-тренировочном процессе //Ученые записки университета им. ПФ Лесгафта. – 2022. – №. 7 (209). – С. 85-89.

4. Кулишенко, И. В. и др. Формирование компетенций критического мышления в системе подготовки физкультурных кадров //Теория и практика физической культуры. – 2020. – №. 12. – С. 28-29.

5. Nematovna I. G. Innovative approaches in formation of creative thinking of students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2015. – Т. 3. – №. 1.

6. Осадчая, Л. А. О Формировании универсальных компетенций в области критического мышления в процессе подготовки бакалавров физической культуры //Проблемы и перспективы развития физической культуры и спорта. – 2019. – №. 1. – С. 93-101.

7. Шакирова Д.М. Формирование критического мышления студентов: модел и технология // Наследие крупных спортивных событий как фактор социально-культурного и экономического развития региона. – 2013. – С. 313-315.

8. Coffman, D.M. (2013). Thinking about thinking: An exploration of preservice teachers’ views about higher-order thinking skills (Doctoral dissertation). Retrieved from ProQuest Dissertations and Theses Global. (UMI No. 3567248).

9. Derrick-Telemaque, E. (2014). The relationship of academic achievement between critical thinking and associated dispositions: A canonical correlation analysis (Doctoral dissertation). Retrieved from ProQuest Dissertations & Theses Global. (UMI No. 361297).

10. Doğanay, A. (2007). Üst düzey düşünme becerilerinin öğretimi. A. Doğanay (Ed.), Öğretim ilke ve yöntemleri içinde (ss. 279-331). Ankara: Pegem Akademi.

11. Gülveren, H. (2007). Eğitim fakültesi öğrencilerinin eleştirel düşünme becerileri ve bu becerileri etkileyen eleştirel düşünme faktörleri (Doktora tezi, Tez No. 211603).

12. Kalelioğlu, F. (2011). Çevrimiçi tartışma yapısının öğretmen adaylarının eleştirel düşünme eğilimleri ile gerçek ve yansıyan eleştirel düşünme performanslarına etkisi (Doktora tezi, Tez No. 302030).
13. Derrick-Telemaque, E. (2014). The relationship of academic achievement between critical thinking and associated dispositions: A canonical correlation analysis (Doctoral dissertation). Retrieved from ProQuest Dissertations & Theses Global. (UMI No. 361297).